

MUQIMIY ASARLARIDA IQTISODIY MAVZULARNING AKS ETTIRILISHI



Nabiyev Nasimbek Shuhratjon o'g'li –

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Moliya fakulteti

Moliya va moliyaviy texnologiyalar yo'nalishi

2-bosqich talabasi

Annotatsiya: quyidagi maqolada o'zbek adabiyotining buyuk namoyondalaridan biri, xalq kuychisi deya ta'riflanadigan shoir Muhammad Aminxo'ja Muqimiyning hayoti va uning asarlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy holatlarning tasvirlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Muqimiy, Sayohatnoma, Tanobchilar, soliq tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy hayot.

Muhammad Aminxo'ja Muqimiy – XIX asr o'zbek adabiyotining eng yirik namoyondalaridan va buyuk adiblaridandir. U o'z asarlarida bugungi kun yoshlari uchun o'rnak bo'la oladigan nafaqat badiiy, balki iqtisodiy mavzulardagi qarashlar to'g'risida fikrlarini bildirgan.

Muhammad Aminxo'ja Mirzaxo'ja o'g'li Muqimiy 1850-yilda Qoqon shahrining Bekvachcha mahallasida, novvoy oilasida tug'ilgan. Otasi Mirzaxo'ja novvoylik kasbi bilan shug'ullangan va onasi Sayidolim Nodirshayxning qizi Oyshabibi bo'lgan. Muqimiy oilasida beshta farzand (1 o'g'il, 4 qiz) bo'lib, u uchinchi va yolg'iz o'g'il farzand edi. Muqimiyning onasi Oyshabibi ajoyib ta'limga ega hamda og'zaki ijodni yaxshi bilgan iqtidorli shoiralardan biri bo'lgan. Muqimiyning shoirona iqtidori aynan shu ayol ya'ni onasi tufayli rivojlanadi va u 10 yoshida birinchi she'rini yozadi hamda 15-16 yoshlaridan boshlab "Muqimiy" taxallusi bilan she'rlar yoza boshlaydi.

Muqimiy dastlab o'z mahallasidagi mulla Abduxalil maktabida, keyinchalik Qoqondagi "Hokim oyim" madrasasida ta'lim oladi. 1872-1873 yillarda Buxoroga boradi va u yerdagi "Mehtar anbar" madrasasida o'qishni davom ettiradi. So'ngra, 1876-yilda o'qishni tugatadi va Qoqonga qaytib, turmush quradi. Adib dastlab yer qurilish mahkamasida mirzalik, keyinchalik Oqjardagi paromda pattachilik qiladi.

Afsuski, moddiy yetishmovchilik, muhtojlik hamda kambag'allik tufayli Muqimiyning oilasi buziladi. Natijada u mahallasida joylashgan Hazrat madrasasidan bir hujra oladi va butun hayotini mutolaa va ijod qilishga bag'ishlaydi. Muhammad Aminxo'ja Muqimiy 1903-yilda Qoqon shahrida vafot etadi.

Shoir o'z asarlarida sho'ro davrida bo'lib o'tkan ziddiyatlar, adolatsizlikalar va ijtimoiy tengsizliklarni mohirona tarzda tasvirlab, tilga oladi va bu ko'proq uning hajviyotida aks etkan. Muqimiy "Tanobchilar", "Saylov", "Loy", "Aroba qursin", "Devonamen" kabi 30 ga yaqin hajviy asarlar yaratgan.

Adibning eng mashhur satiralaridan biri bu "Tanobchilar" hajviy asari hisoblanadi. Ushbu asarda kambagal dehqon mehnatidan o'z manfaatlari uchun foydalanib, ularni aldab katta zarar yetkazgan Sulton Ali va Hakimjon kabi mahalliy amaldorlar qiyofasi yozuvchi tomonidan o'tkir va ta'sirchan misralarda fosh etiladi.

Bo'ldi taajjub qiziq hangomalar,

Arz etayin emdi yozib nomalar.

Adl qulog'i-la eshit holimi,

Zulm qilur, baski, menga zolimi.

O'n ikki oyda keladur bir tanob,

O'zgalara rohat-u menga azob.

Sulton Ali Xo'ja, Hakimjon ikav,

Biri xotun, birisi bo'ldi kuyav.

Ikkalasi bo'ldi chunon ittifoq,
Go'yo hayol aylaki, qilmay nifoq.
Osh yesalar o'rtada sarson ilik,
Xo'ja chirog' yog'i, Hakimjon pilik.
Bir-birisiga solishurlar o'rin,
Erta-yu kech o'pushub og'iz-burun.
Sallalari boshlarida oq savat,
Ko'rpacha tagda hamavaqt uch qavat.
Birlari mo'ltaninamo, hiylagar,
Birlaridur kunda pix-u gavda xar.
Og'izlari maqtanib o'n besh qarish,
Mayda suxan, ezmachuruk, zanchalish.

Asar shu davrdagi aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayotini tasvirlanishi bilan boshlanadi. Yuqoridagi misralarda mahalliy amaldorlardan bo'lgan Sulton Ali va Hakimjon kabilarning bir-biriga bo'lgan munosabati tasvirlanadi. Bu ikki amaldor oddiy aholining mehnatidan o'z manfaati yo'lida foydalanadi. Shuningdek, ularning birini xiylagar, ikkinchisini esa gavdali va juda qo'pol shaxs sifatida tasvirlanadi.

Muqimiyning "Tanobchilar" asarida tanob bu yer o'lchash vazifasini bajargan. Ya'ni odamlar yer solig'ini bevosita ular egalik qilayotgan yer maydonidan kelib chiqib to'laganlar. Shu sababli, u davrda tanobchilar aholi yer maydonlaridan kelib chiqqan holda soliq yig'imlarini amalga oshirganlar. Qolaversa, soliq miqdorlari davlat boshqaruvidagi amaldorlar tomonidan belgilangan va soliqlar muayyan vakillar tomonidan aholidan yigib olingan. Soliqlarni yig'ish jarayonida turli xil adolatsizliklar va ziddiyatlar sodir bo'lgan. Muqimiy esa yuqoridagi muommolarni o'z asarlarida

tanqid ostiga olgan. Bu davrda aholi asosan dehqonchilik va hunarmandchilik bilan kun kechirganlar. Daromad darajasi past bo'lgan xalqqa soliq to'lovlarining ko'paytirilishi aholining turmush tarziga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Shuningdek, shu davrlardan boshlab mazkur hududlarda soliq tizimi tashkil etilib boshlangan.

Bundan tashqari, Muhammad Aminxoja Muqimiyning boshqa asarlarida ham iqtisodiy mavzular va qarashlar aks ettirilgan. “Veksel”, ”Oqjar”, ”Maskovchi boy ta'rifida” kabi asarlarini misol tariqasida aytib o'tishimiz mumkin.

Muqimiy adabiyotga “Sayohatnoma” janrini olib kirgan yozuvchi hisoblanadi. O'zida sayohat hotiralari va ular bilan bog'liq tafsilotlarni aks ettirgan nasriy va she'riy asarni sayohatnoma deb ataladi. Sayohatnoma janri o'zbek mumtoz adabiyotida o'ziga xos shakllanish va rivojlanish tarixiga ega. Keyinchalik, shoirga zamondosh bo'lgan Furqat, Zavqiy, Tajalliy kabi ijodkorlarning ham sayohatnomalari yaratiladi.

Muqimiyning sayohatnomalari asosan uch qismdan iborat bo'lib, ular Qoqondan Shohimardongacha, Qoqondan Farg'onagacha hamda Qoqondan Isfargacha kabilarni o'z ichiga oladi va shoir ushbu sayohatnomalarida turli hududlarning geografik joylashuvi va bu hududlardagi aholining turmush tarzini keltirib o'tadi, shuningdek, xalqning ijtimoiy-iqtisodiy holatiga, urf-odatlariga ham qisqacha to'xtalib o'tadi.

Xulosa qilib aytganda, Muqimiy ko'plab asarlarida o'zining iqtisodiyotga doir qarashlarini keltirib o'tkan va u O'zbekiston iqtisodiyotining tarixiy shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan asarlar yoza olgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Bugungi kunda, Muqimiyning hayoti va ijodini o'rganish va omma orasida targ'ib qilish, ayniqsa, iqtisodchilar orasiga yoyish muhim ahamiyat kasb etadi va bu orqali iqtisodchi kadrlar o'zining kelajak karyerasida katta maktab vazifasini o'tashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Mahmudov.N.M, Avazov.N.R, “Muqimiyning iqtisodiy qarashlari”.Ilmiy risola - T..
“Iqtisodiyot”,2021 - 56 bet.

2. G'ulom Karimov. "Muqimiy". "Ma'naviyat". 2009

3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Muqimiy>